

## **SURXONDARYO VILOYATI TURIZM SALOHIYATIDA KUSHON**

### **DAVRI YODGORLIKLARINING TUTGAN O'RNI**

**Abdirayimova Ozoda Xurramovna - Termiz Davlat Universiteti Geografiya  
ta'lim yo'nalishi 2-kurs magistranti**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati hududida joylashgan Kushon davriga oid yodgorliklarning geografik joylashuvi, tarixiy-madaniy ahamiyati hamda viloyat turizm salohiyatidagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, Fayoztepa, Qoratepa, Zurmala va Dalvarzintepa kabi qadimiy obidalarning tarixiy meros sifatidagi qiymati, hududning turistik jozibadorligini oshirishdagi ahamiyati va madaniy-tarixiy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, ushbu yodgorliklarning Buyuk Ipak yo'li, Kushon sivilizatsiyasi va buddaviylik madaniyati bilan uzviy bog'liqligi ochib berilib, ularni saqlash hamda zamonaviy turizm yo'nalishlariga integratsiya qilish masalalari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar.** Kushon, geografik joylashuv, Zurmala, Fayoztepa, Qoratepa, Dalvarzintepa, turizm, Buyuk Ipak yo'li.

## **THE PLACE OF KUSHAN MONUMENTS IN THE TOURISM CAPACITY OF SURKHANDARDO REGION**

**Abdirayimova Ozoda Xurramovna - Termez State University Geography  
Department 2nd year master's student**

**Abstract.** This article scientifically analyzes the geographical location, historical and cultural significance of the Kushan period monuments located in the Surkhandarya region, as well as their place in the tourism potential of the region. In particular, the value of such ancient monuments as Fayoztepa, Qoratepa, Zurmala and Dalvarzintepa as a historical heritage, their importance in increasing the tourist attractiveness of the region, and the opportunities for developing cultural and historical tourism are highlighted. The inextricable connection of these monuments with the Great Silk Road, the Kushan civilization and Buddhist culture

is also revealed, and the issues of their preservation and integration into modern tourism destinations are considered.

**Keywords:** Kushan, geographical location, Zurmala, Fayoztepa, Qoratepa, Dalvarzintepa, tourism, Great Silk Road.

**Kirish.** Bugungi kunda turizm iqtisodiy rivojlanish, tarixiy-madaniy merosni asrash va hududlar jozibadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston, xususan Surxondaryo viloyati boy tarixiy merosi bilan turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega hududlardan biridir. Viloyat hududida joylashgan Fayoztepa, Qoratepa, Zurmala va Dalvarzintepa kabi Kushon davri yodgorliklari qadimgi sivilizatsiya, buddaviylikka oid yodgorliklar va Buyuk Ipak yo‘li tarixini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Mazkur yodgorliklar nafaqat tarixiy-madaniy ahamiyatga ega, balki Surxondaryo viloyatida madaniy, tarixiy va diniy turizmni rivojlantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Shu sababli ushbu maqolada Kushon davri yodgorliklarining geografik joylashuvi, tarixiy ahamiyati hamda viloyat turizm salohiyatidagi o‘rni tahlil qilinadi.

**Asosiy qism.** So‘ngi rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, Surxondaryo viloyatida jami 561 ta moddiy-madaniy meros obyektlari mavjud bo‘lib, ular hududning boy tarixiy va madaniy salohiyatini yaqqol ifodalaydi. Ushbu obyektlar tarkibida arxeologiya yodgorliklari eng katta ulushni tashkil etib, ularning soni 444 tani tashkil qiladi. Shuningdek, arxitektura yodgorliklari 36 tani tashkil etib, ular asosan tarixiy me‘moriy inshootlar va diniy obidalardan iborat. Diqqatga sazovor joylar soni 42 ta bo‘lib, bu obyektlar sayyohlar madaniy ahamiyatga ega maskanlar sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, monumental san‘at yodgorliklari 39 tani tashkil etadi. [5] Yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki Surxondaryo viloyatida turizmning faqatgina tabiiy turini emas, balki tarixiy va madaniy turizmni rivojlantirishda xam ulkan salohiyatga ega hudud sifatida baholash mumkin. Xususan, Surxondaryo viloyatida joylashgan madaniy obidalar qatoriga kiritilgan ko‘hna tarixga ega Qoratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa kabi yodgorliklar

qadimda ushbu hududda buddaviylik madaniyati va Kushon davri sivilizatsiyasining yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Mazkur yodgorliklar nafaqat tarixiy va arxeologik ahamiyatga ega, balki hududda diniy, madaniy hamda ekskursion turizmni rivojlantirishda muhim turistik resurs sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan, Surxondaryo viloyati boy tarixiy-madaniy merosi bilan mamlakat turizm salohiyatida alohida o‘rin egallaydi.

Arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, milodiy I asrning boshlaridan Tarmita (Termiz) buddaviylik ta‘limotini Markaziy Osiyoda tarqalishida o‘ziga xos «ko‘prik» vazifasini bajargan. Mil. 629-630 yilda Baqtriya-Toxariston o‘lkasi bo‘ylab sayohat qilgan xitoylik buddaviy rohib Syuan Szan ham Tami (Termiz) mulkligida 12 ta, Chag‘oniyon (Surxondaryoning o‘rta va yuqori oqimi bo‘yida joylashgan mulklik)da esa 5 ta buddaviylik inshootlari mavjud bo‘lganligini o‘z asarida ta’kidlab o‘tgan. [1, 157-b.]

**Fayoztepa.** Fayoztepa Termiz shahri yaqinida joylashgan qadimiy buddaviylik yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Ushbu arxeologik majmuada olib borilgan tadqiqotlar natijasida buddaviy ibodatxonalar, turli haykallar hamda devoriy tasvirlar aniqlangan. Olimlarning fikricha, yodgorlik milodiy I–III asrlarga mansub bo‘lib, topilmalar bu hududda buddaviylik dini keng yoyilganini tasdiqlaydi. Majmua asosan “vixara” ko‘rinishida qurilgan bo‘lib, u buddaviy rohiblar yashashi va diniy faoliyat olib borishi uchun mo‘ljallangan maskan sanaladi. Vixara tarkibida hovli, yashash xonalari va marosimlar o‘tkaziladigan markaziy qism mavjud bo‘lgan. Ibodatxona yaqinidagi stupadan esa oltin bilan bezatilgan sopol hamda marmar haykallar topilgan. Ushbu topilmalar o‘sha davr san’ati va madaniyatining yuqori darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi.[2, 160-b.]

**Qoratepa.** Qoratepa majmuasi Surxondaryo viloyati, Termiz shahrining sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, Markaziy Osiyodagi eng yirik buddaviy monastir va ibodatxonalar majmualaridan biri hisoblanadi. Bu joyda olib borilgan arxeologik qazishmalar Qoratepa milodiy I-III asrlarda Kushonlar davrida faoliyat ko‘rsatgan diniy markaz bo‘lganini ko‘rsatadi. Qoratepa hududi o‘zining noyob

arxitekturasi, devoriy san'ati va haykaltaroshlik namunalariga ega bo'lib, Markaziy Osiyoda buddaviylik madaniyatining rivojlanishini aks ettiradi. Qoratepedagi Buddha diniy markazi uchta kichik tepalikdan iborat qumtosh tepaligida joylashgan bo'lib, taxminan 7 gektar maydonni egallagan.[3]

**Dalvarzintepa.** Kushon podshohlarining qarorgohi Kushon imperiyasi davridagi (eramizning I-IV asrlari) yodgorliklar orasida Termizdan 60 km uzoqlikda, Surxondaryo viloyatining Sho'rchi tumanida joylashgan qadimgi Dalvarzintepa shaharchasi alohida o'rin egallaydi. Ushbu obyektning batafsil o'rganishi 19670-yilda tarixchilar Galina Pugachenkova va M.E. Masson tomonidan boshlangan. Qadimgi shaharning shimoliy qismida Baqtriya ma'budi ibodatxonasi va noyob rasmlar topilgan. Miloddan avvalgi I asrning boshlarida barpo etilgan budda ibodatxonasining xarobalari topilgan, bu O'zbekistondagi eng qadimgi buddaviylik binosi hisoblanadi.[4, 100-b]

**Ayritom.** Termizdan 17 km masofada joylashgan Ayritom shaharchasining sharq tarafida aftidan buddaviylik stupasiga o'xshash minora shaklidagi xom g'ishtdan qurilgan bino vayronalari joylashgan. 1933 yilda arxeolog M.Ye. Masson tomonidan xom g'ishtdan qurilgan bino qoldiqlari, uning ichida esa haykal, tosh karnizlar, me'moriy buyumlar, toshdan yasalgan muqaddas yodgorliklar borligi aniqlangan. Musiqachilar va mutafakkirlar, ehson keltiruvchilarning shakllari tushirilgan haykallarning hoshiyali tosh plitalari topilgan. Bu ibodatxona majmuasiga ibodat joylaridan tashqari rohiblar uchun yotoqxona va qator xizmat xonalari, ya'ni oshxona, omborxonalarini ham o'z ichiga olgan. Ayirtomdagi buddaviylik yodgorliklari mahalliy xalq hayotida ushbu dinning ta'sirini aks ettiradi.

Ushbu yodgorliklarni ko'rish maqsadida 2025-yilda Janubiy va Janubiy Sharqiy Osiyo davlatlaridan 3000 ga yaqin sayyoh tashrif buyurgan bo'lib, ular asosan O'zbekistonning janubiy hududlari, xususan, Surxondaryo vohasida joylashgan Kushon davriga oid buddaviylik madaniy merosi bilan yaqindan tanishdilar. Sayyohlar oqimining bunday faollashishi Termiz shahri atrofidagi va

voha bo‘ylab tarqalgan noyob arxeologik yodgorliklarga bo‘lgan xalqaro qiziqishning yangi bosqichga chiqqanini ko‘rsatadi. [6]

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo viloyatida joylashgan Kushon davriga oid yodgorliklar nafaqat O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi, balki hududning turizm salohiyatini oshiruvchi muhim geografik resurslardan biri hisoblanadi. Xususan, Fayoztepa, Qoratepa, Zurmala va Dalvarzintepa kabi yodgorliklar Kushon sivilizatsiyasi, buddaviylik madaniyati hamda Buyuk Ipak yo‘li tarixini o‘rganishda muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi.

Mazkur obidalar tarixiy va madaniy turizmni rivojlantirish, xorijiy va mahalliy sayyohlar oqimini ko‘paytirish hamda viloyatning xalqaro turizm bozoridagi nufuzini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, ushbu yodgorliklarni asrab-avaylash, ilmiy tadqiq etish va zamonaviy turizm infratuzilmasi bilan uyg‘unlashtirish orqali Surxondaryo viloyatida barqaror turizmni rivojlantirish imkoniyatlari yanada kengayadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Аннаев Ж. Тармита-Термиз буддавийлик маданияти. – Термиз, 157 б.
2. Очилдиев Д., Раҳимжонов Р., Муҳамедов Н. Диншунослик асослари. – Тошкент: «Тошкент ислом университети» нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2013. – 160 б.
3. Хакбердиев К. Распространение буддизма в Узбекистане // Builders of The Future. – 2022. – Т.2. – №2. DOI: <https://doi.org/10.37547/builders-v2-i2-45>
4. Умбаров Х. Surxondaryo hududidagi qadimiy manzilgohlar // World Knowledge International Journal of Scientific Researchers. – 2024. – №1. – Б.100.
5. [Stat.uz](https://stat.uz)